

**“Infin BANK mobil ilovasida Tez QR’dan foydalangan holda to‘lovni amalga oshiring va Le Chalet by Amirsoy sertifikatini yutib oling” aksiyasi  
QOIDALARI**

### 1. Umumiy qoidalalar

1.1. Ushbu Qoidalalar “InfinBANK” mobil ilovasida Tez QR’dan foydalangan holda to‘lovni amalga oshiring va Le Chalet by Amirsoy sertifikatini yutib oling” (keyingi o‘rinlarda - Aksiya) “InFinBank” AJ tomonidan o‘tkaziladigan aksiyani o‘tkazish tartibi, shartlari va muddatlarini belgilaydi.

1.2. Aksiya muddati: 2025 yil 19 maydan 1 avgustgacha.

1.3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida “InfinBANK” AJ bank tizimida o‘tkaziladi.

1.4. Ushbu Qoidalarda quyidagi ta’riflar va atamalar qo‘llaniladi:

**Bank** – “Invest Finance Bank” Aksiyadorlik jamiyati, aksiyani tashkil etuvchi hisoblanadi;

**Ishtirokchi** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, 18 yoshdan katta jismoniy shaxs, UZCARD kartasi egasi, Bankning masofaviy bank xizmatlari iste’molchisi (InfinBANK mobil ilovasi foydalanuvchisi) bo‘lib, aksiyani o‘tkazish davrida mazkur Qoidalarda ko‘rsatilgan talablarga muvofiq InfinBANK mobil ilovasida TEZ QR orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirgan shaxs;

**G‘olib** – mazkur Qoidalarda ko‘rsatilgan talablarga muvofiq, aksiyada barcha ishtirokchilar orasida g‘alaba qozongan ishtirokchi;

**Sovrin** – Le Chalet by Amirsoy mehmonxonasida 4 kishi uchun 1 sutkalik yashash huquqini beruvchi sertifikat;

**To‘lov** – InfinBANK mobil ilovasida Tez QR yordamida tovar va xizmatlar xaridi uchun UZCARD kartasidan pul mablag‘larini o‘tkazish jarayoni;

**Shaxsni tasdiqlovchi hujjat** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, harbiy xizmatchilar uchun harbiy bilet, ID-karta, xorijga chiqish uchun biometrik pasport, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi;

**Hisobot haftasi** – dushanbadan yakshanbagacha bo‘lgan aksiyaning o‘tkazilish davri;

**Shaxsiy ma’lumotlar** – Ishtirokchiga tegishli bo‘lgan yoki uni aniqlash imkonini beruvchi elektron, qog‘oz yoki boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan axborot.

### 2. Aksiya ishtirokchilari

2.1. Aksiya ishtirokchisi – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan, 18 yoshdan katta jismoniy shaxs bo‘lib, UZCARD kartasi egasi, Bankning masofaviy bank xizmatlari iste’molchisi (ya’ni InfinBANK mobil ilovasi foydalanuvchisi) hisoblanadi va aksiyani o‘tkazish davrida InfinBANK mobil ilovasida TEZ QR orqali tovarlar va/yoki xizmatlar uchun to‘lovni mazkur Qoidalarning 3-bo‘limida belgilangan ishtirok etish shartlariga muvofiq amalga oshirgan bo‘lishi kerak.

2.2. Bank xodimlari aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

2.3. Aksiyada ishtirok etish – ishtirokchilarning ushbu Qoidalarga to‘liq roziligini anglatadi.

### **3. Aksiyada ishtirok etish shartlari**

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun ishtirokchi har bir hisobot haftasi davomida InfinBANK mobil ilovasi orqali istalgan bankka tegishli UZCARD kartasi bilan TEZ QR yordamida kamida bir marta, bir martalik to‘lov summasi 300 000 (uch yuz ming) so‘m yoki undan ko‘p bo‘lgan to‘lovnini amalga oshirishi lozim.

3.2. Har bir amalga oshirilgan to‘lov hisobot haftasida g‘olib bo‘lish uchun bitta imkoniyat beradi.

3.3. Har bir ishtirokchi faqat bitta sovrin yutib olishi mumkin. Agar ishtirokchi keyingi hisobot haftasida qaytadan g‘olib bo‘lsa, sovrin qayta o‘ynalish orqali boshqa ishtirokchiga beriladi.

3.4. G‘olib har hafta aniqlanadi, o‘tgan hisobot haftasida aksiyada ishtirok etgan ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlov (random) orqali aniqlanadi va bu jarayon Bankning ijtimoiy tarmoqdagi Instagram sahifasida jonli efirda amalga oshiriladi.

3.5. Agar ishtirokchi ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan talablarga rioya qilmasa, u aksiyada ishtirok etish va sovrinni olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Sovrinni olish uchun ishtirokchi aksiyani o‘tkazish davrida va sovrinni qabul qilishni tasdiqlovchi hujjatlarni imzolashgacha bo‘lgan muddat ichida Qoidalarga muvofiq barcha zarur harakatlarni bajarishi shart.

### **4. Mukofot fondi**

4.1. Mukofot fondi “Le Chalet by Amirsoy” mehmonxonasida 4 kishi uchun 1 sutkalik yashash huquqini beruvchi 10 ta sertifikatdan iborat.

4.2. Bitta sovrin – bitta sertifikatga teng.

4.3. G‘oliblar sovrinni pul mukofoti bilan almashtirishni talab qilish huquqiga ega emaslar.

### **5. Aksiyani o‘tkazish tartibi va sovrinlarni o‘ynash jarayoni**

5.1. Ushbu Qoidalarga muvofiq bo‘lgan shaxslar sovrinli o‘yin ishtirokchilariga aylanishadi.

5.2. Aksiya davomida g‘oliblar har juma kuni tasodifiy tanlov (random) asosida aniqlanadi va Bankning ijtimoiy tarmoqdagi Instagram korporativ sahifasida jonli efirda e’lon qilinadi.

5.3. Bank aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokalariga yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi, — nizoli holatlar yuzaga kelgan yoki sovrinni topshirish zarur bo‘lgan hollar bundan mustasno.

5.4. Bank istalgan vaqtida, o‘z xohishiga ko‘ra ushbu Qoidalarga o‘zgartish va qo‘srimchalarni kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunda o‘zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) ish kuni oldin [www.infinbank.com](http://www.infinbank.com) saytida e’lon qilinishi shart. Bank sovrinlar ro‘yxatini va miqdorini, shuningdek, aksiya muddatini o‘zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega. Ishtirokchining aksiya doirasida duch kelishi mumkin bo‘lgan zararlari, xarajatlari yoki boshqa har qanday yo‘qotishlari Bank tomonidan qoplab berilmaydi.

5.5. Bank sovrin egasining hayoti (salomatligi) yoki mulkiga, shuningdek, uchinchi shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mulkiga etkazilgan har qanday zarar uchun, sovrindan foydalanish muddati davomida, javobgar emas.

5.6. Ushbu aksiya o‘tkazilishi bilan bog‘liq barcha kelishmovchilik va nizolar Bank va Ishtirokchi o‘rtasida o‘zaro hurmat, yaxshi niyat va tushunish asosida muzokalarlar orqali hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizolar Bank joylashgan hududdagi sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

5.7. Bank Randomus yoki unga o‘xshash tasodifiy sonlarni taqdim etuvchi maxsus dastur yordamida 10 (o‘nta) asosiy g‘olibni va qo‘srimcha tarzda 10 (o‘nta) zaxira nomzodni aniqlaydi. Bu

zaxira ishtirokchilar sovrinni asosiy g‘olib tomonidan rad etilishi va/yoki Qoidalarga muvofiq belgilangan muddatda sovrinni olmasligi holatlarida hisobga olinadi.

5.8. Agar asosiy g‘olib sovrindan voz kechsa va/yoki 10 (o‘n) ish kuni dan ortiq muddat ichida sovrinni olmasa, sovrin Randomus dasturida birinchi bo‘lib aniqlangan zaxira nomzodga o‘tadi. Agar birinchi zaxira nomzod ham sovrindan voz kechsa yoki uni olmasa, sovrin ikkinchi zaxira nomzodga beriladi.

5.9. Agar zaxira nomzod ham sovrindan voz kechsa yoki belgilangan muddatda sovrinni olmasa, Bank Komissiyasi qaroriga ko‘ra, ushbu bo‘limning tegishli bandlariga muvofiq Alternativ g‘olibni aniqlash tartibi qo‘llaniladi.

5.10. Agar Alternativ g‘olibni aniqlash natijasida ham sovrin rad etilsa va/yoki belgilangan muddatda olinmasa, Bank sovrinni o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.11. G‘olibning ismi Bankning ijtimoiy tarmoqdagi Instagram korporativ sahifasida jonli efirda e’lon qilinadi.

5.12. Aksiya shartlariga rioya qilinmagan taqdirda yuzaga keladigan oqibatlar uchun Bank javobgar emas.

## **6. Sovrirlarni olish tartibi va muddatlari**

6.1 Bank tomonidan g‘olibga jonli efirda sovrin yutgani haqida xabar berilgan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida sovrinni qabul qilib olish uchun g‘olib Bankka shaxsini tasdiqlovchi hujjat aslini taqdim etishi shart.

6.2. Sovrin g‘olibga topshirilishi, g‘olib va Bankning vakolatli vakili tomonidan imzolanadigan Qabul qilish-topsirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

6.3. Bankning sovrin topshirish bo‘yicha majburiyatları, sovrin ishtirokchiga topshirilgan va Qabul qilish-topsirish dalolatnomasi imzolangan vaqtadan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.4. Sovringa egalik huquqi Qabul qilish-topsirish dalolatnomasi imzolangandan keyin g‘olibga o‘tadi.

6.5. Sovrinni topshirish tantanali ommaviy tadbir shaklida, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida tashkil etilishi mumkin.

## **7. Aksiya ishtirokchilarini aksiya o‘tkazish shartlari, aksiyani to‘xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida xabardor qilish tartibi**

7.1. Aksiyada ishtirok etayotganlar aksiyaning shartlari va o‘tkazilish tartibi haqida Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, Bankning mobil ilovasida, ommaviy axborot vositalarida va kontekstli reklamalar orqali xabardor qilinadi.

7.2. Aksiyaning bat afsil ma’lumotlari hamda Aksiya qoidalari Bankning rasmiy korporativ veb-sayti [www.infinbank.com](http://www.infinbank.com) dagi «Yangiliklar» bo‘limida joylashtiriladi.

7.3. Aksiyaning bat afsil ma’lumotlarini Bankning ishonch telefoni orqali ham olish mumkin: (+998 71) 202-50-60 va qisqa raqam 1214.

7.4. Agar aksiya muddatidan oldin tugatilsa, davomiyligi uzaytirilsa yoki Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritilsa, tegishli ma’lumot Bankning rasmiy korporativ veb-sayti [www.infinbank.com](http://www.infinbank.com) dagi «Yangiliklar» bo‘limida, tegishli holat yuzaga kelishidan 10 (o‘n) ish kuni oldin e’lon qilinadi.

7.5. Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiq, Ishtirokchi Bankka o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini (maxsus shaxsiy ma’lumotlar bundan mustasno) cheksiz vaqt davomida

Bankning faoliyatini yuritishi, ushbu Qoidalar shartlarini bajarishi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlarda qayta ishlashi va foydalanishi uchun rozilik beradi.

7.6. Aksiyada g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarning sovrinlarni qabul qilganliklari haqidagi asos ushbu qoidalarga muvofiq, ularning ismlari, familiyalari, suratlari va ularga oid boshqa shaxsiy ma’lumotlari (maxsus shaxsiy ma’lumotlar bundan mustasno) Bank tomonidan reklama maqsadlarida, ularga hech qanday tovon to‘lanmasdan foydalanilishi mumkinligini anglatadi va ishtirokchilar bu foydalanishga rozilik bildirgan hisoblanadilar.